

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti
"Axborot texnologiyalari" kafedrasining navbatdan tashqari yig'ilish**

BAYONNOMASI № 21

"14" 06 2024 yil

Denov tumani

Qatnashdilar: Kafedra mudiri T. Rajabov va kafedra o'qituvchilari.

KUN TARTIBI:

1. O'qituvchi Xolbekov Abdusattorning ochiq dars muhokamasi.

ESHITILDI:

Kun tartibiga kiritilgan masala yuzasidan kafedraning navbatdan tashqari yig'ilishida "Axborot texnologiyalari" kafedra mudiri T. Rajabov so'zga chiqib, o'qituvchi A. Xolbekovning "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich, sirtqi 2MI-S-2022 guruhida "Pedagogik dasturiy vositalar" fanidan "Flash dasturida taqdimot yaratish. Flash dasturida nazorat testlarini yaratish" mavzusida o'tkazgan amaliy mashg'ulot darsi haqida quyidagilarni bayon qildi: O'qituvchi A. Xolbekovning ochiq darsi yaxshi tashkil qilinganligini, dars jarayonida darsni mustahkamlash uchun "Kahoot" ta'lim platformasidan foydalanib darsni innovatsion metodlar asosida olib borilganligini va ochiq dars namunali darajada tashkil etilganligini alohida ta'kidlab o'tdi.

O'qituvchi I. Xushboqov ham so'zga chiqib A. Xolbekovning ochiq dars mashg'ulotiga o'zining quyidagi fikrlarini bildirdi: Darsning tashkiliy qismi o'qituvchi tomonidan yaxshi tashkil etilganligini va o'qituvchining dars jarayonida to'liq sensorli monitordan foydalanib dars mashg'ulotini olib borganligini alohida ta'kidlab, tematik reja va dasturga muvofiq slayddan foydalangan holda dars mashg'uloti olib borilganligi, o'qituvchi tomonidan dars mavzusi "HEMIS" platformasida qayd etilib, talabalar davomati aniqlanganligini va darsda innovatsion metodlar va savol kartochkalaridan foydalanib dars jarayoni mazmunli olib borilganligini qayd etib dars mashg'ulotini namunali deb baholadi.

O'qituvchi E. Saidaxmedov ham so'zga chiqib A. Xolbekovning ochiq darsiga o'zining quyidagi fikrlarini bildirdi: Darsning tashkiliy qismi o'qituvchi tomonidan yaxshi tashkil etilganligi va o'qituvchining dars jarayonida Flash dasturida taqdimot yaratish. Flash dasturida nazorat testlarini yaratish haqida talabalarga batafsil tushuntirganligini alohida bayon qilib o'tdi. Shu bilan birgalikda o'qituvchi tomonidan barcha talabalarining dars jarayonida faol va e'tiborli bo'lishlariga alohida e'tibor qilib borildi va dars mashg'uloti qiziqarli va mazmunli olib borildi va ochiq dars jarayonini namunali deb topdi. Yuqoridagi bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib kafedra yig'ilishi quyidagicha

QAROR QILADI:

1. "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich sirtqi 2MI-S-2022 guruhida "Pedagogik dasturiy vositalar" fanidan "Flash dasturida taqdimot yaratish. Flash dasturida nazorat testlarini yaratish" o'tkazgan ochiq darsi reja asosida o'tkazildi deb hisoblansin.
2. O'qituvchi A. Xolbekovning "Flash dasturida taqdimot yaratish. Flash dasturida nazorat testlarini yaratish" mavzusida o'tkazgan ochiq dars mashg'uloti yaxshi deb baholansin.

Kafedra mudiri:
Kotib:



T. Rajabov
J. Shaydullayev